

JADID MA'RIFATPARVARCHILIGI SHAKLLANISHIDAGI TARIXIY  
SHART-SHAROIT VA OBEKTIV ZARURIYAT.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7722140>



ELSEVIER



International Journal of Education, Social Science & Humanities

**Patiyev Xoldor Ikromovich**

Termiz davlat pedagogika instituti  
"Falsafa va ma'naviyat asoslari"  
kafedrası o'qituvchisi



**Abstract:** Ushbu maqolada Jadid ma'rifatparvarchiligi shakllanishidagi tarixiy shart-sharoitlar va uning paydo bo'lishidagi obektiv zaruriyat haqidagi ma'lumotlar ochib beriladi. Jadidchilik shakllanishida ilg'or mamlakatlar ta'siri, ularning taraqqiyotidan xulosalar chiqarish zamirida dastlab ziyolilar qatlami, keyinchalik ularning xizmadlari va fidoyiligi zamirida xalqning tafakkuriga ta'sir qilish bilan ma'rifatparvarlik keng ommaga tanish hodisaga aylandi.

**Keywords:** Jadidchilik, ma'rifatparvarlik, sart, tuzem, nizom, mutassiblik, ilm-fan, tafakkur, imkoniyat, e'tiqod.

**Received:** 10-03-2023

**Accepted:** 11-03-2023

**Published:** 22-03-2023

**About:** FARS Publishers has been established with the aim of spreading quality scientific information to the research community throughout the universe. Open Access process eliminates the barriers associated with the older publication models, thus matching up with the rapidity of the twenty-first century.

**Kirish.** Jamiyat tarixiga nazar tashlaganda har bir davr sinovlar bilan kechganligining guvohi bo'lamiz. Insoniyat hayotini tasodif va ziddiyatlarsiz tasavvur qilish qiyin. Kim uchun manfaatli bo'lgan voqea-hodisa, kimgadir qarama-qarshi ta'sir qiladi. Shu o'rinda har qanday davrni, voqea-hodisani, ijtimoiy-siyosiy jarayonni o'rganishda ma'lum bir qoidalarga tayanib o'rganamiz. M. Veberning fikricha, fanning har qanday sohasida har qanday hodisaning yuzaga kelishi, uni keltirib chiqargan shart-sharoitlar, tarqalishi aniqlanmaguncha noaniq qoladi. Buni tushunish uchun mavjud vaziyatdan va jamiyatning ushbu hodisaga yo'naltirilganligidan kelib chiqish kerak. Idrokni "vosita" sifatida qarashimiz kerak[13:600]. Ya'ni, rang sinishi elementlaridan foydalangan holda empirik usul bilan harakatning ma'nosini aniqlashimiz va o'rganishimiz mumkin. Tadqiqotimizda o'rganiladigan asosiy masalalar jadidchilik, ma'naviyat, ma'rifat, ma'rifatparvarlik, ma'naviy-ma'rifiy qarashlar kabi tushunchalardir.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Markaziy Osiyoda jadidchilikning paydo bo'lishi, o'sha davr tarixi, falsafiy fikrlari, g'oya va siyosiy qarashlari haqida ko'plab tadqiqotchilar ish olib borgan. Chet ellik olimlardan Adib Holid, Bekon Elizabet, Edvard Allvort, Lavrentev V.A, Ershahin Seyfettin, Mehmet Saray, Somunju og'lu To'men kabi ko'plab olimlar tadqiq etganlar. Mamlakatimizda jadidchilikka oid ilmiy tadqiqotlar tarixchilar, adabiyotchilar va faylasuflar tomonidan ko'plab ilmiy ishlar amalga oshirilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur maqoladagi o'rganilayotgan muammo ilmiy tadqiqotning tarixiylik, mantiqiylik, qiyosiy tahlil, xolislik, ilmiylik metodlari

asosida yoritishga e'tibor berilgan. Jadidchilar fikr va g'oyalari xalqimiz ong-u tafakkurini shakllantirishning eng muhim bosqichlaridan biri sifatida e'tirof etiladi.

**Tahlil va natijalar.** Har qanday taraqqiyot uzviy va davomiy bo'lmaydi. Taraqqiyot ortidan tanazzul paydo bo'lishi fanda o'z isbotinini topgan. Ya'ni bu jarayonlar bir-birlarini takrorlab turadi. Jahonda yuz bergan barcha sivilizatsiya o'choqlari bir makondan ikkinchi makonga vaqt o'tishi bilan ko'chib o'tishi ko'p kuzatiladi.

Mintaqamiz tarixida oltin davr hisoblangan Amir Temur va Temuriylar davridan keyin ilm-fanning ba'zi sohalarida tushkunlik va turg'unlik davri boshlandi. Bu esa jamiyatning barcha sohalarini qoloqlikda qolib ketishiga sabab bo'ldi. Bu bir necha asr davom etgan tanazzul ilm-fan, madaniyat bilan bir qatorda davlat boshqaruv asoslari, siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni ham qamrab oldi. Mintaqamiz jahon taraqqiyot darajasida orqada qolib ketishiga va erkidan mahrum bo'lishiga olib keldi. Millat va davlatni oldinga boshlash uchun yangi bir kuch harakatga kelishi kerak edi. Bu kuch sifatida jadid ma'rifatparvarlari maydonga keldi.

Jadidchilik arabcha so'z hisoblanib, "yangi" degan ma'noni bildiradi. Bu tushuncha jamiyatni ilm-fandan boshlab, asta-sekinlik bilan ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy, siyosiy sohalarini ham isloh qilib borish nazarda tutiladi. Jadidchilik g'oyalari yaqin qarashlar sharq musulmon davlatlarida XVIII asrda shakllanib boshlagan, lekin uning kulminatsion nuqtasi XIX asr oxiri XX asr boshlari hisoblanadi. Jadidchilik g'oyalari faqat mustamlaka davlatlarda emas, aksincha mustaqil davlatlarning ham taraqqiyotida o'rin olgan. Bu g'oyalarni rivojlantirishda hukmdorlar, bosh vazirlar, savdogarlar, ziyolilar, dindorlar, hunarmandlar va boshqa tabaqalar ham bo'lgan. ... Usmonli imperatorligidan Mustafu Rashid Poshonning islohot g'oyasi, Qrim olimi Ismoil G'aspirali Beyning, Ozarbayjonning ma'rifatparvar yozuvchisi Mirza Fatali Oxundzodaning va Qozonda Shahobiddin Marjoniyning g'oyalari hojilar, maktublar, sayyohlar va tujjorlar vositasi bilan Turkistondagi ziyolilarga ilhom bermoqda edi[3:11].

Bu targ'ibotlar **bir tomondan** mustamlaka tuzimi sharoitida o'z xalqining qiyinchiliklari, ezilishlari, adolatsizliklardan aziyat chekayotganligini ko'rib turgan vatanparvar, insonparvar jadidchilarni befarq qoldirmadi. Nega boshqa o'lkalar o'z xalqi taqdirini turmush tarzini o'zgartirishga harakat qiladi-yu, biz tinchimizni ko'zlaymizmi degan fikrlar ularga tinchlik bermasdi. **Ikkinchi tomondan** xalqni xurofatdan, bidatlardan, mutassiblikdan xalos qilish uchun nima qilish kerak degan savol qiynar edi. **Uchinchi tomondan** nega boshqa xalqlar o'z taqdirini o'zi belgilaydi, o'zining mustaqillik va erki uchun kurash qiladi-yu, biz istiqloq uchun befarqmiz degan o'ylar jadidchilarni har tomonlama tashvishga sola boshladi.

XIX asr insoniyat hayotida tub o'zgarishlar davri bo'lish bilan birga jahon xalqlari o'rtasida tengsizlikning kuchayishi va manoplistik mustamlaka davrini boshlab berdi. Bu mustamlaka tizimi xalqlarni ma'lum bir xalqga tob'e qilib, nafaqat yer usti va yer osti boyliklarni, insonlar erkini ham birga jilovlashga harakat qildi. XIX asr boshida Markaziy Osiyo va Afg'oniston hududi Turkiya, Eron, Xitoy, Rossiya, Buyuk Biritaniya, Germaniya kabi davlatlar rejasida bo'lsada voqealar rivoji asr o'rtalarida Chor Rossiyasi va Buyuk Biritaniya ustunligini taqazo etdi. Bu ikki davlat ham ushbu mintaqalarni egallashni zimdan amalga oshirishga qaror qildi. Mintaqadagi qaloq va kuchsiz davlatlarni egallash uchun savdogar, sayyoh, elchi maqomidagi o'z ayg'oqchilarini ma'lumot to'plash uchun yubordi. Mintaqadagi davlatlar o'rtasidagi munosabat chegara hududlari tufayli ijobiy bo'lmagan. Qo'qon, Buxoro, Xiva kabi davlatlar bir-birining ichki va tashqi savdosiga ham to'g'anoq bo'lib kelishgan. Asosiy savdo yo'llari mustamlakachi davlatlar qo'lida bo'lganliklari ularni tashqi dunyo xabarlaridan mahrum etgan. Chor Rossiyasi XIX asr o'rtalaridan boshlab uzil-kesil bu hududni egallashga kirishdi. Xonliklarni bir-biriga yordam berishga imkon qoldirmaydigan tayanch punkitlarni egallab ularni ajratib qo'ydi.

Shu o'rinda Toshkent shahri egallanish jarayonida Buxoro amiri Muzaffarxon qarshilik ko'rsatmadi. Toshkentliklar yordam so'rab murojaat qilganda shunday javob bergan: "Men bir oddiy rus lashkarboshisi bilan urushni o'zimga or deb bilaman. Agar urushmoqchi bo'lsam, u vaqtda to'ppa-to'g'ri Moskovaga yoki Peterburgga borib jang qilaman" [19:110]. Amir Muzaffarxon misolida ko'rishimiz mumkinki xonliklar hukmdorlari ham tashqi dunyodan uzilgan va chor Rossiyasi qudrati haqida ma'lumotga ega bo'lmagan yoki o'zlariga yuqori baho berib yuborganlar. Shu asosda 1847-1885-yillar orasida O'rta osiyo mintaqasi to'liq bosib olindi. Bu bosqinlarni jahon hamjamiyatiga yumshoqlik bilan izohladi.

Tashqi ishlar vaziri Gorchakov 1864-yil 3-dekabrda jahon jamoatchiligi fikriga bayonot berib, bosqinlarni qonuniylashtirishga harakat qildi: "Rossiya O'rta Osiyoda duch kelayotgan vaziyat barcha sivilizatsiyalashgan davlatlarning hech qanday ijtimoiy tashkilotga ega bo'lmagan yarim yovvoyi va ko'chmanchi xalqlarga qarshi muammolari bilan bir xil. Bunday hollarda ko'proq madaniyatli davlatlar o'z chegaralari va manfaatlarini himoya qilishlari kerak edi. Chegara hududida tartibsizliklarni keltirib chiqargan guruhlar jazolanganidan keyin qo'shinlarimizni olib chiqishning imkoni bo'lmadi. Bunday holda, ikkita narsa qilish kerak: yoki hammasi sivilizatsiyaviy harakatlarimiz va manfaatlarimizdan voz kechish va chekinish yoki bu vahshiylar yurtiga boriladi. U yerdan chekinishimizni osiyoliklar zaiflik deb bilishadi. Biz oldinga borishda davom etamiz. Bu taraqqiyot qaerda to'xtab, qaerga olib borishini oldindan aytish juda qiyin..." [7:49] Buxoro va Xiva yarim mustamlaka davlatga aylangan bo'lsa, Qo'qon

xonligi tugatilib o'rniga Turkiston general gubernatorligi tuzuldi. Ikki davlat o'z mavqeni yo'qotib, tashqi aloqadan mahrum etilgan. Ichki siyosatda ham o'zgarishlarni Chor Rossiyasi vakillaridan ro'xsat olib amalga oshiradigan ayanchli ahvolga tushib qoldi. Turkistonda esa Chor hukumatining boshqaruv tizimi joriy etilib, xalqning urf-odat va an'analariga kuchli ta'sir o'tkazildi. O'lka boshqaruvida shu qadar keng vakolatlar berigan-ki, hech bir mustamlaka boshqaruvi bunday huquq-imtiyozlarga ega bo'magan.

Amalda chor hukumati Buxoro amiriga ham, Xiva xoniga ham Rossiyaning viloyatlaridan birining hokimi va hatto shahar boshlig'i sifatida qaragan. Qabul qilingan joylarda yuqori boshqaruv bo'linmalarga rus harbiy ofitserlari tayinlandi. Bo'limlarda mahalliy xalq vakillari mas'ul bo'lishdi. Ular ba'zi davlat muassasalari, banklar va Rossiyaning yirik tijorat muassasalarida tarjimon bo'lib ishlaganlar[10:265].

Turkiston ma'muriyati imperiyaning boshqa o'lkalari boshqaruvidan o'zining keskin harbiylashgani bilan alohida ajralib turadi. Rossiya hukumatining Turkiston uchun 1865-1916-yillar davomida ishlab chiqqan va amalga tadbiq etgan o'nta qonun loyihasi ( 1865, 1867, 1871, 1873, 1882, 1884, 1886, 1908, 1912, 1916 ) ga va uning moddalariga adliya, moliya, harbiy, ichki ishlar va boshqa vazirliklarga kiritilgan o'zgartirishlarda ana shu holat o'z aksini topgan. Turkiston o'lkasi siyosiy tizimida San-Peterburg oliy harbiy-siyosiy doiralarining niqoblangan va jahon afgor ommasini chalg'itishga qaratilgan nayranglari ham ro'y-rost gavdalangan. Harbiy vazirlikning bosh stabi Osiyo bo'limi, Ichki ishlar vazirligi politsiya departamenti, "imperator hazrat oliylarining o'z mahkamasi", Vazirlar qo'mitasi va Vazirlar Kengashining Turkiston idoralari haqidagi hujjatlarida Rossiya hukumat Turkiston xalqlarining " xohish-irodasi va roziligiga qarab qolmasligi" va "o'z faoliyatida to'la erkin bo'lishlari zarurligi" o'qtirilgani bejis emas. Ana shu hujjatlarda aholi "amaldorlarga to'lanadiga maoshni o'zlari to'layotganidan voqif bo'lmasliklari hamda bu ishni hukumat marhamati" deb tushunishlari uchun zarur choralar ko'rish ham ta'kidlangan [18:190]. Shu o'rinda Chor hukumati yuqori davlat lavozimlariga o'z millati vakillarini, quyi yoki mahalliy boshqaruvga yerli millat a'zolarini qo'yib, tub joy aholisi ustidan nazoratni yumshoqlik bilan olib borayotgan edi. Quyi boshqaruvda faoliyat yuritayotgan mahalliy millat vakillari ham Chor Rossiyasi manfaatlariga xizmat qilardi. Mahalliy aholi turmush-tarziga e'tiborsiz munosabatda bo'lar edi.

XIX asr oxirida Turkistonda yashagan ilm-ma'rifat egalari o'z davridan qanoatlanmagan. Ismoil G'asparalibey xonliklar saltanatining so'ngi davrini shunday ta'riflaydi: " Shoh Temur davrida har biri bir arslon o'lan turgan turkistoniylar bu zamonda ta'siri zulm va istibdod ila biror sochsiz xotin, soqolli zaifalar poyasini kirmish edi. Eski ilma va ulamodan ham deyarli asar qolmagan.

Xolis va halol qolmay, uzun choponlarga, xil'atlarga o'ralgan riyokor ko'paygan edi. Zolimlar yo'lini to'sadigan shariat ahli tugab, zolimlarga fatvo topib berib, 5-10 tilla-oltin uchun sabohdan oqshomga qadar "omin", "omin" aytib, millatni xarob va barbod etganlar sanoqsiz edi. Qanday baxtsizlikki, bir uchi Saddi Chinga, digar uchi O'rta yer dengiziga chiqqan saltanat bahodirlarining avlodi yoshlikda ....., so'ng esa .....lik haromliklari ichida umr kechiradirlar edi. Umaro va vukaloning aksari yo Eron asirlaridan, yo .....lik qilganlardan mansabga ko'tarilar edi. Shijoat maydonida Temurlarning, Shayboniylarning ism-shariflari unitilgani kabi ilm maydonida Ibn Sino, Farobiylar, maorif maydonida Ali Qushchi, Ulug'beklar yoddan chiqib, butun Movarounnahr bir xanoqoyi parishon va diyori darveshon o'lmish edi. Ilm, hilm, maorif izzat-nafs va haysiyat( hurmat-e'tibor) riyokorlikka aylangan edi. Bu so'zlar balki achchiq so'zlardir, lekin to'g'ri so'zlardir. Tarix yozadigan muarrix madhiya yozadigan mirza emas"[12:190].

Chor Rossiyasi mustamlakasi davrida Turkistondagi mahalliy boshqaruv vakillari hukumatga sodiq bo'lib xalqni, millatni e'tibordan chetda qoldirgan bo'lsa, Xiva xonligi va Buxoro davlatida o'zlarini hukmdorga sodiq ko'rsatib, boyluk to'plashni va davlat manfaatidan o'z manfaatini ustun qo'yadigan amaldorlar va davlat xizmatchilari shakllandi. Har ikki holatda ham barcha jabr-zulm xalqning ahvoli abgor darajada qolishiga sabab bo'ldi.

O'lkani ruslar egallagandan keyin aholining ahvoli va'da qilingan yaxshi imkoniyatlar va qulayliklar, faravonliklar o'rniga, aksincha, kundan kunga yomonlashib va og'irlashib bordi. Aholidan biz ko'p narsa talab qilmoqdamiz, ulardan soliq olishda esa biz yuksaklikka ko'tarilmoqdamiz, lekin biz xalqga nima qildik. Biz unga tinchlik, osoyishtalik berdik, qo'shinlar o'rtasidagi talon-taroj urushlarga chek qo'ydik, o'lim jazosini muttasil kamaytirganimiz aniq, lekin biz shu bilan cheklandik. Toshkentda turli kommissiyalarda chiroyli aytilgan so'zlardan tashqari, xalq xo'jaligi uchun biz hech narsa qilmadik[16:9].

1886-yilda Turkiston general-gubernatorligi uchun "Turkiston viloyati ma'muriyati" nomi bilan yangi tartib tuzildi. Bu tartibga solish bilan ko'chmanchilardan hayvon boshiga olinadigan ko'chbor deb nomlangan soliq ham xuddi shu holatdan naqd pulga aylantirildi. 1868 yilda har bir chodir uchun 3 rubl bo'lgan soliq 1886 yilda 4 rublgacha oshirildi. Eski soliq tizimlarining aksariyati bekor qilindi. Ilgari ko'chmas mulk hisoblanmagan mulk solig'i qabul qilina boshladi. Ma'lumki, Turkistonda eski tuzum xususiyatlariga ko'ra yirik mulkdorlar bo'lmagan. Turkistonda juda boy vaqf va mulklar mavjud edi. Chor hukumati yangi tuzum va chor Rossiyasining Turkistonda hukmronligidan so'ng vaqf mulklarini asta-sekin o'zlashtira boshladi [10:261,262].

Muhammad Muso Turkistoniy «Ulug' Turkiston fojiasi» kitobida qayd qilishicha: Ruslarning Turkistonga biz madaniyat keltirdik, Turkistonni obod

qildik degan iddaolari bo'sh so'zdan iborat bo'lib qoldi ... Xalq faqirlashdi, sindi-sindi ko'paydi, hamma ish bank va shirkatlarning foydasig'a hal bo'ldi. Masalan, bir kishining bankidan ming (1000) so'm qarzi bor. Vaqtida to'lay olmadi. Haftalik oylik o'sgan foydasi bilan u qanni uch ming (3000) so'm bo'lg'onligi, u bechora qarzdor vafot qilib vorislari to'layolmay nihoyat hovli-joylari, bog'lari bo'stonlari sotiladur. Puli bankka to'lanadur. Bu ishlar ayb bo'lmay elda, yurtida odatlanib, qonunlashib qolg'oni ma'lumdur"[9:266].

1886-yilgi nizom Turkiston general-gubernatorligini imperiya bilan birlashtirishga qaratilgan islohotlarni o'z ichiga olgan. 1886-yilgi nizom Turkiston general-gubernatorligi vakolatlarini cheklaydigan nizom bo'lishi kerak edi. Ushbu tartib bilan yangi kengash tuzildi va bu kengash general-gubernatorga yordam beradi. Bu general-gubernatorning ijroiya qo'mitasi edi. Kengash uchta bo'limga bo'lingan. Birinchi bo'lim ma'muriy masalalarga, ikkinchi bo'lim qishloq xo'jaligi va ta'limga, uchinchi bo'lim moliyaviy masalalarga, vaqflarni boshqarishga va statistik ma'lumotlarning hisobiga bag'ishlangan bo'lar edi. Sud hokimiyati mustaqilligicha qoldi. General-gubernator bu yangi tartibdan qoniqmadi. Haqiqatan ham, bu kengash general-gubernatorning vakolatini ko'p cheklay olmadi. U asosan maslahatchi vazifalarini bajargan. Uzoq rus madaniyati va boshqaruv uslubidan farqli o'lkalarda hukmronlik qilgan general-gubernatorlar va mahalliy ma'murlar o'z vakolatlari asosida harakat qildilar. Shu sababli, vaqti-vaqti bilan yangi islohot loyihalari amalga oshirildi.

Eski muassasalarning bir qismi Turkiston general gubernatorligi tarkibidagi mahalliy ma'muriyatlarda davom etishiga ruxsat berildi. Rossiyalik boshqaruvchilar va davlat xizmatchilari sudyalalar va oqsaqol saylovlarida ko'proq vositachilik qildilar. Ular an'anaviy mahalliy ma'muriy tuzilishiga tubdan aralashmagan. Biroq, viloyatlarda saylangan boshqaruvchilar mavjud bo'lsada, oqsoqollar singari, ular ham o'z vazifalarini ma'qullash bilan boshlaganlari uchun ularni rus ma'muriyatidan butunlay mustaqil deyish qiyin edi[5:154].

Yer masalasi har vaqt sharq xalqlari uchun eng muhim jarayon hisoblangan. Shu jumladan bizning diyorumizda ham XIX-XX asrda yer masalasi o'z ahamiyatini yo'qotmagan edi. Xalqning katta qismi ziroatchilik bilan kun ko'rar edilar. Mustamlaka hududga aylangandan keyin asosiy shaharlarga va unumdor yerlarga Rossiyaning markaziy hududlaridan rus aholisi ko'chirib keltirildi. Shaharlar hayoti ikki qismga bo'linib, mahalliy aholi rus madaniyatidan uzoqda saqlab turildi. Ko'chirib keltirilganlarga mahalliy aholining qo'lay yerlar tortib olib berildi. Yersiz va uysiz qolgan yerli aholiga yer berilmay, taqdir hukmiga topshirib qo'yildi. Mustamlaka zulmiga qarshi bosh ko'targan joylarda yerlar batamom tortib olinib rusiyzabon aholini joylashtirish holatlari kuzatildi. 1878-yil Darveshxon, 1898-yil Muhammad Ali eshon, 1916-yilgi qo'zg'alonlardan keyin yerli aholining

yerlarini tortib olib, uylari buzib, o'zlari haydab yuborilgani ham manbalarda qayd etilgan.

Toshkentning rus qismini tashkil qilish uchun maxsus qo'mita tuziladi. Rejaga kirgan joylardan mahalliy aholiga mansub yuzlab oilalar zo'ravonlik bilan ko'chiriladi. Ularga yangi hovli, yer olish uchun yordam berilmaydi. Hovlilar buzib tashlanib, Yevropa va rus muhitidagi toifalar bo'yicha zobit va amaldorlar uchun uylar, oromgohlar, keng ko'chalar quriladi. Eski shaharning ya'ni o'zbeklar yashaydigan qism aholisining mustamlakachilar yashaydigan shahar qismiga o'tishi qat'iy taqiqlanadi. Toshkentning yangi shaharini bunyod etish uchun katta mablag' talab qilinardi. Bu mablag'lar ko'proq eski shahar aholisi daromadi hisobidan qoplanardi[5:202].

Sobiq Rossiya imperiyasi sharoitida O'rta Osiyo xalqlari tarixiy o'tmishning yuksak madaniyati vorislari bo'lgan holda, milliy qadr-qimmatni doimo kamsitish va dahshatli qoloqlik sharoitida yashab kelgan[5:91].

Yerli aholiga ixtiyoridagi yerda paxta yetishtirishni rag'batlantirib kelindi. Paxtaga bo'lgan soliq va boj to'lovlari dastlab pasaytirilgan. Bu siyosat Chor Rossiyasining paxtaga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash maqsadidida amalga oshirilgan edi.

V.Lavrentiev "Turkistonda kapitalizm" asarida shunday fikr bildiriladi: mustamlaka ma'muriyati "... pul soliqlarini joriy etish orqali to'g'ridan-to'g'ri ishlab chiqaruvchilarning asosiy qismini tovar bozoriga olib chiqarishga hissa qo'shgan holda, Rossiya ma'muriyati bir vaqtning o'zida Turkiston iqtisodiyotining tabiiy negizlariga putur yetkazadi. Ikkinchi tomondan, kata yer egalari va musulmon ruhoniylarini cheklash yo'lidan bordi»[14:33].

Aynan tovar munosabatlariga o'tish mintaqada paxta hosilining ko'payishiga asosiy sabab bo'ldi. Paxtachilik mintaqada pul va tovar munosabatlarining kirib kelishiga asos bo'ldi. Bunga hukumatning ushbu madaniyatga nisbatan soliq siyosati yordam berdi. Aytish kerakki, 1886 yilgi "Nizom"da viloyat paxta xo'jaliklari uchun alohida shart-sharoit yaratilmagan. Ammo 1891 yil 11 iyundagi paxtachilikni rag'batlantirish shaklida chiqarilgan qonunga ko'ra, paxta egallagan yerlardan bu o'sish hosilining 10 foizi miqdorida emas, balki ana shu asosiy ekinlar daromadidan soliq solingan(yalpi daromadning o'rtacha 7,5% ni tashkil etadi)[17:160].

Paxta maydonlarining kengayib borishi natijasida boshqa ekin turlarini ekadigan maydonlar kamayib bordi. Bu holat o'z navbatida boshqa iste'mol tovarlariga bo'lgan talabni oshirdi. Talabning oshib borishi bevosita narxlarning ko'tarilib ketishiga olib keldi. Mahalliy aholidan unumdor yerlarning tortib olinishi, soliqlarning oshirib yuborilishi, iste'mol tovarlarning narxi ko'tarilib ketishi mahalliy ahoining harid quvvatini pasaytirib yubordi. Turmush kechirishni

og'irlashtirib yubordi. Yerlarning asosiy qismi ruslarga va katta yer egalariga tegishli edi. Oddiy aholining ko'p qismi mardikorlik bilan shug'ullanishga majbur bo'ldi. Yangi tashkil etilgan zavod va korxonalar egasi bo'lgan mahalliy boylar va rus ishbilarmonlari qo'lida ishlash ham diyarli aholi uchun foydali emas edi. Oddiy aholining ahvoli kundan kun yomonlashar va arzimas sabab ham aholining g'azabini keltirish darajasiga kelgan edi. Chor Rossiyasi davrida ko'tarilgan barcha qo'zg'alonlar zamirida mana shu sabbalar yotar edi.

Bundan tashqari mahalliy millat vakillariga nisbatan rasmiy hujjatlarda ham, kundalik munosabatlarda ham qadr-qimmatini kamsituvchi "sart", "tuzem" atamalarini qo'llar edi. Bu haqida jadidchilar yo'lboshchisi Mahmudxo'ja Behbudiy "Sart so'zi majhuldur" maqolasida shunday ma'lumot beradi: "o'tgan sanalarda sart so'zi haqida ruslar orasig'a mubohasa bo'lub, «Turkestanski vedomosti» ruscha – jaridasida har kim har nima yozib va har nav' faraziyotlar joriy qilinib edi. Qazoq birodarlarimizdan da'vo vakili janob Sherali Lapin yozib ekanki, sart so'zi haqorat so'zlaridan bo'lub, «sarig' it»dan axuz muhaqqaqdur. Bu lafzni iste'mol qilmasg'a kerak. Hozir Turkistonda joriy turki – o'zbaki shevani «sartski» yoinki «sart tili» demasdan «o'zbaki til» deb atalsun"[21: 22-, 23-, 25-, 26-sonlar].

Hukumat vakillari bo'lgan ko'pchilik amaldorlar mahalliy aholiga nisbatan past nazar bilan qarar edilar. Mahalliy aholi vakillarini davlatni boshqarishga aqlidroki etmasligini, shuning uchun doimo bo'ysinib yashash qoidasini singdirmoqchi bo'lar edilar.

Yerli xalqni ilm-ma'rifatdan uzoqda tutishga harakat qilindi. Eski madrasa va maktablarga qarashli vaqf yerlari tortib olindi. Natijada bu o'quv dargohlarida ta'lim olayotgan o'quvchilar ham yetarli darajada bilim olishga muyyasar bo'lmadilar. Ilm-fan chorak asr davomida tushkunlik holatini boshdan kechirdi.

Xonliklarning ruslar tomonidan bosib olinishidan so'ng mintaqada vaqt o'tishi bilan shakllangan mexanizmlar ham larzaga keldi. Xonlik idoralari vaqf mulklarini qisman nazorat qilgan. Rus ma'muriyatida bu nazorat yumshagach, vaqf daromadlarini suiiste'mol qilgan mullalar paydo bo'ldi. Shuning uchun ham masjid va madrasalar yaroqsiz holga kelgan. Madrasalar tuzilmasini buzgan yana bir voqea qozilarni tayinlash masalasi edi. Ruslar ishg'oldan keyin shariat qonunlarini tan olishgan, ammo har bir mintaqa uchun qozi saylangan. Ilgari xonlar qozilarni tayinlaganlar, ularni tanlashda taqvoga, savobga, xalqdan olgan obro'siga e'tibor berganlar. Rossiya davrida saylangan sudyalarda hech qanday savob qolmadi. Bundan tashqari, xalqning saylov huquqi bekor qilindi. Adolat izlagan odamlar faqat o'z tumanlaridagi qozilarga borishlari mumkin edi. Oqibatda qozi va mullaning obro'si larzaga keldi. Bu zarba madrasalarga ham ta'sir qildi. Ruslar shaharlarda xalqning diniy marosimlarini nazorat qiluvchi boshliqlarni ham ishdan bo'shatdilar. Bularning barchasi natijasida Toshkent va to'g'ridan-to'g'ri



Rossiya hukmronligi ostidagi shaharlardagi masjidlarga keluvchilar soni keskin kamayib ketdi[2: 125].

Madrasalarda ham o'z ichki dinamikasi tufayli regressiyalar kuzatildi. Buxoro madrasalari XVI asr oxirigacha u bugungi universitetning o'ziga xosligini olib keldi va o'quv dasturiga arifmetika, hendese, tarix va tibbiyot kabi fanlar kiritildi. XVI asrda bular dunyoviy ilmlar sifatida ko'rib chiqilib, ta'limdan chetlashtirildi. 10-12 yil davomida madrasa ta'limiga tobe bo'lgan talabalar bu ilmlardan bexabar bo'lib qoldilar. XX asrga kelib barcha madrasalarda mutaassiblik hukmron edi. Vaziyatni o'zgartirish uchun ba'zi muddarislarning sa'y-harakatlari etarli emas edi.[4:81]

1890-1893 yillarda Rossiya istilosi ostidagi Turkiston general gubernatorligida 214 ta madrasa bor edi. 1910-yilda Xiva xonligida 6500 nafar talaba tahsil oladigan 130 ta, Buxoro amirligida esa shu davrda 150-350 ta madrasa bo'lgan. Ma'lumki, Buxoro, Farg'ona va Xiva atrofida madrasalar va shunga mos ravishda boshqa viloyatlarga qaraganda ko'proq ulamolar mavjud. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, Buxoro amirligidagi ulamolar aholining uch foizini tashkil etdi. Yuqori darajali ulamolar o'zlari bo'lgan davrda vaqflari va xizmatlaridan olgan ulushlari bilan boylar qatoriga kirganlar[6: 57.58].

Ruslar Turkiston istilosidan keyin an'anaviy muassasalarni zaiflashtirish strategiyasi doirasida ta'lim muassasalaridagi islomiy unsurlarni vaqt o'tishi bilan tarqatish orqali tozalashni maqsad qilganlar. 1875-yilda Turkiston maktablari rus hokimiyati tasarrufiga o'tkazildi. Madrasalarda ruscha musbat ilmlarni o'rgatish kun tartibiga qo'yildi, ammo ular bunga erisha olmadilar. Xiva va Buxoro xonliklarida madrasalar 1920 yilgacha an'anaviy tartibini davom ettirgan[6: 65].

Bu erda rus imperializmining ikki xil jihati roli bor. Birinchidan, rus gegemonligi bunday harakatga turtki bo'lgan bo'lsa, rus zamonaviyligi bu o'zgarishlarning katalizatori bo'ldi. Chunki "Rus istilosidan keyin Turkiston: Bir tomondan mustamlakachilik siyosati, ikkinchi tomondan zamonaviylikka ega bo'ldi. Musulmon bo'lmagan davlatning bo'yinturug'i ostiga tushish ham, uning zamonaviy dunyo oldida o'zligini ko'rish ham Turkistonda o'zgarishlar muhitini yaratishga yordam berdi. Avvaliga intuitiv, keyin esa donolik bilan ular qanchalik ortda qolganligini va rus bosqinining sabab emas, balki natija ekanligini aniqladilar. Rossiya istilosining jamiyatdagi o'zgarishlar g'oyasining rivojlanishiga ta'siri juda katta edi[9:235].

Jadid ma'rifatparvarchiligi shakllanishidagi tarixiy shart-sharoit va obektiv zaruriyatini o'rganishda Ahmad Donishning Navodir al-vaqoe' ("Nodir voqealar"), "Risoi tarixi amiron mang'it" ("Mang'it amirlari tarixi risola")sida, tarixchi Mirzo Salimbek ibn Muhammad Rahimning "Tarixiy Salimiy" asarlariga tayanib va Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Is'hoq Ibrat,

Vadud Mahmud, Hoji Muin, Munavvarqori Abdurashidxonov va boshqa jadidchilar asarlari va maqolalari asos bo'lib xizmat qildi.

Aslida yetilib kelayotgan jadidchilikning tamal toshini Ahmad Donish qo'ygan edi. Ye. Bertelsning «Donish – O'rta Osiyo jadidlarining otasi» deb bergan ta'rifi ayni haqiqat. Shuning uchun ham bunday ulug' zotning hayoti va faoliyatini o'rganmasdan turib jadidchilikning vujudga kelishini hamda ahamiyatini to'liq tushunish qiyin[8:73].

Ahmad Donish Buxoro amirlarini o'z manfaatlarini davlat va xalq manfaatidan ustun qo'yib, yurtni obod va farovon qilishda no'noq hukmdor sifatida quyidagicha tasvirlaydi: "Buxoroda millat hayotida qabih o'zgarishlar yuz berdi: aksariyat madrasalarda dars, masjidlarda namoz ta'qiqlanib, madrasa hujralari goho mishkobchining eshagi uchun og'ilxona, ba'zan esa baqqolning g'alla omboriga aylanadi. ... beva xotinlarning chirog'donidan o't-olovni, vaqflarga tegishli ombordan nonlarni o'g'irlab, ularni barchasini o'z qorinlarini to'yg'azishga, turli ehtiyojlarga sarflar edilar. Hech kim ularni to'xtata olmas edi. Amir va hokimlar o'rtasida mayxo'rlik, qimorbozlik, fisqu-fasod keng tarqalgan. Fuqaro va raiyat esa zulmning kuchayishi, oluq va soluq, aminona va vakilona dastidan erkin nafas olmay qoldilar, nikoh o'qitish narxi qimmatlashdi. Masalan, mahr o'n dirhamga, qozini nikoh dalolatnomasi o'n dinor va bir man bug'doy, tarozidan foydalanish uchun o'n besh tanga va boshqalar", deb yozadi[11:19].

Amir janoblari yuborg'an «ehson»ning qobug'ini ochib yaramas, arzimas kimsalarga mehroxo'rlik (yig'ilgan soliqlarni qabul qiluvchi), to'xsobaliq (to'qsabo harbiy vazifa) rutbalarini bag'ishlamoq, hatto fohisha xotunlarig'a madrasa mutavalliliklarini bermak yo'li bilan o'ziga tarafdor to'plab turubdir. Qushbegisi esa, angiz isiyun (Qasos olishni tezlatish) mazmunini esga ketirur yo'llar bilan yoziqsiz, gunohsiz kimsalarni mahv qilmoq ila mashg'ul! Hukumatdan bo'lmag'an va ko'nglidagini tilinda olg'an mazlumlarni o'g'rilik tuhmatila tutdirib, qinab (qiynab) iqrur qildirmoq bahonasi bilan yalang'och qorinlarig'a yuz-ikki yuz tayoq urg'andan keyin tarbuz suyi ichiradir. Bechoralar tarbuz suyini ichkandan so'ng shishib o'larlar!.. So'ng bir oy muddatda shu surat bilan o'lganlarning soni yuz ellikdan ortmishdir[1:200].

Davlat hokimiyati tomonidan taqdim etilgan vakolatlarni qonun doirasidan chiqib, adolat tarozisini teskari ishlatgan amaldorlarning nechog'lik inson qadr-qimmatini, yerga urganligini ko'rish o'sha davr ilm-ma'rifat sohiblari kechirib bo'lmas hato ekanligini anglaganlar.

Rus kapitalistlari bilan rus po'plarining sodiq va ishonchli qorovullari bo'lg'an eski Rusiya huqushti elli(k) yil orasida, Turkistondag'i turk bolalarining foydalarig'a biror ish ko'rdimi, ko'rmoqchi bo'ldimi?

Mana shul savolga, Maltaassuf, «yo'q!» dan boshqa bir javobimiz yo'qdir. Yurtimiz: elli(k) yillik bir idorayi askariya ostida turdig'i uchun biz Ovrupaning madaniy millatlari bilan ko'risholmadik, unlarning ijtimoiy va iqtisodiy fikrlaridan istifoda qilolmadiq. Bizning ko'zlarimizni ochdurmaslik uchun fikri ochiq totor qarindoshlarimizning daxi Turkistonda maktab ochmoqlari man etildi[20:64-65-sonlar].

Mundan boshqa yana sinmoqimizg'a sabab tariyqi tijoratni, molni olish va sotish joyini bilmaganimiz, paxta va boshqa g'alla to'g'risinda Amriqo, Afriqo va Ovrupo bozor va ziroatlarini holidan, bo'lgan va bo'lmaganidan bexabarligimizdur. Bizni tojirlar aksariyat ila hech joydan bexabar «tavakkal» deb ish qiladurlarki, tashabbussiz tavakkal ila ish qilmoqni shar'an manhiyigidan bexabarligimiz boisdur. Eng oxirgi sabab sinmoqimizg'a shulki, tijorat maydoninda nodonligimizdan boshqalar tarafidan aldanarmiz[15:19-son].

**Xulosa va takliflar.** Turkistonda hokimiyat to'liq rus ma'murlari qo'lida bo'lishi yerli xalqning rus shovivist amaldorlaridan qo'rqishini, ularda cheklanmagan harbiy va siyosiy imkoniyatlarning borligi xalqning ziyoli qatlami va ma'lum mulkka egalik qilgan boylarni ham ularning izmidan chiqmasligini, amaldorlarning ularga qilgan e'tirozlaridan kiyin muommolarni ular foydasiga yon berishini ta'minlagan. Buxoro va Xiva mustamlakalarida esa davlat boshliqlari kundalik o'zgarishlarni ham rus ma'murlaridan izn so'rashi, hukmdorlar qo'l ostidagi amaldorlarning ham rus ma'murlariga yoki vakillariga tayanishni kuchaytirib yubordi. Endilikda davlat boshlig'idan ham yuqori turuvchi tayanchga ega bo'lgan ba'zi adolatsiz amaldorlar xalqqa nisbatan jabr-zulmni har qachongidan ham kuchaytirib yubordi. Bu voqealarning jonli guvohi bo'lib turgan vatanparvar ruhoniylar, o'zligini yuqotmagan boylar, ilm-ma'rifat egalari jamiyatni isloh qilish kerakligini ongli ravishda his qilib turar edilar.

Jadidchilar dastlab o'zlarining ongi tafakkurini, bilim va dunyoqarashini o'stirish uchun o'zlarini o'quvchi ya'ni o'rganuvchi sifatida ko'rdilar. Boshqa davlatlarga sayohat uyushturib, borgan joylaridagi ilm-fan namayondalari bilan tanishdilar. Ulardan ijobiy hislatlarni o'zlashtirishga harakat qildilar. O'zga yurtlardagi ta'lim-tarbiya muassasalari faoliyati bilan tanishdilar. O'z navbatida davlat boshqaruv sohasidagi bilimlarini ham o'zlashtirib keldilar. Jadidchilar fikr va qarashlarida qarama-qarshiliklar ham bo'lgan bo'lishi mumkin. Lekin yagona g'oya ya'ni xalqning ong-u tafakkurini o'stirish ularni yagona maqsad yo'lida birlashishini ta'minladilar.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkin-ki mintaqaning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi va ko'plab huquq va imkoniyatlardan mahrum etilishi ilm-ma'rifat sohiblarining dunyoqarashiga keskin ta'sir qildi. Agar mustamlaka davlatga aylanib qolmaganimizda mahalliy biqiqlikdan chiqib ketish ehtiyoji ham

yuzaga kelmasligi mumkin edi. Mustamlaka davlatga aylanishimiz bir tomondan xalqqa nisbatan jabr zulurning kuchayishiga sababchi bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan o'sha jabr-sitamlardan qutilish yo'llarini izlashga majbur etdi. Mintaqamizda yangi avlodning ya'ni jadidchilikning vujudga kelishining tarixiy shart-sharoiti va obyektiv zaruriyati bevosita mustamlagaga aylanib erksiz bo'lib qolishimiz ham turtki bo'ldi. Buxoro, Xiva, Qo'qon kabi mutloq hokimiyatga asoslangan davlatlarimizning olib borgan ichki va tashqi siyosatidagi kamchiliklarni, ilm-ma'rifat borasidagi mutassib siyosatini yaqqol namoyon etishiga olib keldi. Jadidchilik mana shunday qiyin va murakkab davrda Sharq musurmon xalqlari orasida vujudga keldi. Jadidchilik tub zamirida ozodlik, erkinlik va mustaqillik g'oyalari yotar edi. Dastlab Chor Rossiyasida davrida konstitutsiyaviy monarxiya yolida harakat qilgan jadidchilik, birinchi jahon urushidan keyin federaiv Rossiya tarkibidagi muxtoriyat uchun kurash olib bordi. Bolshevik hokimiyati dastlab vaqtdan yutish uchun ular bilan hamkorlik qilgan bo'lsa, keyinchalik bu harakat namayondalarini siyosiy qatag'onlar orqali o'z yo'lidan olib tashladi va mintaqada o'zlarining gegimonliklarini o'rnatdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдурауф Фитрат. Танланган асарлар 2 жилд.бухоронинг ҳ о л и. Т.: «Маънавият», 2003.
2. Bacon Elizabeth E. Esir Orta Asya, çev. Tansu Say, Garanti Neşriyat, 1979.
3. Boymirza Hayit "Milliy egitim va kultur". Turkiya turkchasidan Miraziz A'zam tarjiması.
4. Boymirza Hayit, Sovet Ittifoqida turkiylik va islomning ayrim masalalari, Istanbul: Turk dunyosi tadqiqotlari fondi nashri, 1987.
5. Edward Allworth "Central Asia, edited by" Duke university Pres, London 1994.
6. Erşahin Seyfettin, Türkistan'da İslâm ve Müslümanlar, ankara:Türkiye Diyanet Vakfı Yayınları, 2007.
7. Mehmet Saray, Afg'oniston va turklar, Adabiyot fakulteti matbuoti, Istanbul 1987.
8. Odilqoriyev X. T, Razzoqov D. X. Siyosatshunoslik: Darslik. -T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012.
9. R.Shamsutdinov, Sh.Karimov ,O'. Ubaydullayev, Vatan tarixi (xvi-xx asr boshjari) ikkinchi kitob. Toshkent: Sharq.
9. Somuncu oğlu Tümen B. (2014). Çarlık Rusyası Dönemi Türkistanı'nda İslam ve Moderleşme, TSA / YIL: 18 S: 2, Ağustos 2014.
10. Zeki Velidi Togan, Xotiralarim, Istanbul 1971.

11. Ахмад Дониш. Рисола ёхуд манғитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи.-Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, Давлат илмий нашриёти, 2014.
12. Б.Қосимов. Миллий ўйғониш: Жасорат, маърифат, фидоийлик. Тошкент: Маънавият.
13. Вебер М. Избранные произведения. Пер с нем. / Сост., общ.ред. и послесл. Ю.Н. Давыдова; Предисл. П.П. Гайденко. – М.: Прогресс, 1990.
14. Лаврентьев, В.А. Капитализм в Туркестане . - М. : Коммун, акад., 1930.
15. М.Беҳбудий “Оҳ , бонкалар бизни барбод этди” « Ойна » ж., 1 914 йил, 19-сон.
16. Р.Шарипов Туркистон жадидчилик ҳаракати тарихидан. Тошкент.-Ўқитувчи.2002.
17. РГИА. Ф. 1396. Оп. 1. Д. 175. Л. 186 об.// Алимджанов Б.А Экономическая Политика Российской Империи В Туркестанском Генерал-Губернаторстве (Вторая Половина XIX-Начало XX Вв.) : дис. ... кан. ист. наук : 07.00.03 / Алимджанов Бахтиер Абдихакимович . - С.-Петербург., 2016.
18. Ҳ,Содиқов, Р. Шамсутдинов, П.Равшанов, Қ.Усмонов . Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. I китоб. Тошкент.-Шарқ.-с.190.
19. Ҳ.Зиёев.Тарих – ўтмиш ва келажак кўзгуси.-Тошкент:Ғ.Ғулом,2000.
20. «Hurriyat», 1918 yil, 63 – 64-sonlar
21. «Oyna» jurnali, 1915 yil, 22-, 23-, 25-, 26-sonlar